

AFRIKA MAMLAKATLARIDAGI GEODEMOGRAFIK VAZIYAT

Berdikulova Muxayyo Toshtemirovna
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi. O'zbekiston
Chorshanbiyeva Ruxshona Abraxmat qizi
Qarshi davlat universiteti talabasi

Аннотация: Mazkur maqolada Afrika qit'asi ayrim davlatlarida aholi sonining ko'payib borishi, mintaqada kechayotgan iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatga bog'liq holda demografik jarayonlarning o'zgarishi bayon qilingan. Qit'a davlatlarining geodemografik vaziyati hamda vujudga kelayotgan turli muammolar va ularning sabablari o'rganilgan. Shu bilan birga, mintaqadagi geodemografik muammolarning yechimida oid ba'zi bir takliflar ishlab chiqilgan.

Таянч сўзлар: aholi, aholi o'sishi, aholi tarkibi, demografik muammolar, urbanizatsiya, migratsiya, tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish, aholi zichligi.

ГЕОДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В СТРАНАХ АФРИКИ

Бердикулова Мухайё Тоштемировна
Преподаватель Каршинского государственного университета. Узбекистан
Чоршанбиева Рухшона Абрахмат кызы
Студентка Каршинского государственного университета

Аннотация: В статье рассматривается рост населения в некоторых странах Африканского континента, изменения демографических процессов, обусловленные экономической и социальной ситуацией в регионе. Изучается геодемографическая ситуация стран континента, а также возникающие проблемы и причины их возникновения. Разработаны предложения по решению геодемографических проблем региона.

Ключевые слова: население, рост населения, структура населения, демографические проблемы, урбанизация, миграция, рождаемость, смертность, естественный прирост, плотность населения.

GEODEMOGRAPHIC SITUATION IN AFRICAN COUNTRIES

Berdikulova Mukhayyo Toshtemirovna
Teacher at Karshi State University. Uzbekistan
Chorshanbiyeva Rukhshona Abrakhmat qizi
Student at Karshi State University

Abstract: This article describes the population growth in some countries of the African continent, changes in demographic processes due to the economic and social situation in the region. The geodemographic situation of the countries of the continent, as well as various emerging problems and their causes, are studied. At the same time, some proposals are developed for solving geodemographic problems in the region.

Key words: population, population growth, population structure, demographic problems, urbanization, migration, birth rate, death rate, natural increase, population density.

Afrika – kattaligi va aholi soni bo'yicha dunyoning ikkinchi qit'asi. Afrika qit'asi shu nomdagi materik va unga tutash orollardan iborat. Afrikaning orollar

bilan birgalikdagi maydoni - 30,3 mln. km² ni tashkil etadi. Afrikaning o'rtasidan ekvator chizig'i, g'arbidan esa bosh meridian o'tgan. Shu tufayli Afrika ham Shimoliy, ham Janubiy, ham Sharqiy, ham G'arbiy yarim sharlarda joylashgan. Afrika qirg'oqlari shimolda O'rta dengiz, shimoli-sharqda Qizil dengiz, sharqda Hind okeani, g'arbda Atlantika okeani suvlari bilan yuviladi. Qizil dengiz, Suvaysh kanali va Bob-al-Mandob bo'g'izi Afrikani Osiyodan, O'rta dengiz va Gibraltar bo'g'izi esa Yevropa qit'asidan ajratadi. Afrika qit'asi orol va yarimorollar ozligi bilan ajralib turadi.

Qit'ada BMT tomonidan rasmiy qabul qilingan 54 ta suveren davlat mavjud. Afrika qit'asi hozirgi kunda demografik jihatdan eng tez o'zgarayotgan hududlardan biridir. countrymeters.info/ru/Africa ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Afrika aholisi 1 mlrd 504 mln kishini tashkil qildi, yil davomida taxminan 37,9 mln kishiga ko'payib, yillik o'sish sur'ati 2,58 foizga yetdi. Yil davomida taxminan 54,5 mln bola tug'iladi va 14,8 mln kishi vafot etadi. 2025-yilda Afrika aholisi 38 904 894 kishiga ko'payadi va yil oxiriga kelib 1 542 882 589 kishiga yetadi. Aholining tabiiy o'sishi ijobiy bo'lib, 39 682 369 kishiga yetishi prognoz qilinmoqda.

Afrika aholisining zichligi juda xilma-xil bo'lib, o'rtacha 1 kv km ga 50 kishi to'g'ri keladi. Biroq Namibiyada bu ko'rsatkich 3,2 kishi/km², Mavrikiyda esa 635 kishi/km² ni tashkil qiladi. Aholi eng zich joylashgan mamlakatlar qatoriga Ruanda, Burundi, Marokash, Tunis, Jazoir, Efiopiya, Uganda, Nigeriya va Zambiya kiradi.

2000-yilda Afrikaning urbanizatsiya darajasi 35% bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 43,5% ga yetdi. 2023-yilda shaharlar aholisi taxminan 689 million kishi bo'lib, urbanizatsiya darajasi 45% ga yetdi. Burundi, Uganda va Tanzaniya kabi mamlakatlarda shahar aholisi yiliga 4-5% dan yuqori sur'atlarda o'smoqda. Bu ko'rsatkich davlatlardagi shaharchalarning o'sishi hisobiga amalga oshmoqda. 2025-yilda umumiy hayot davomiyligi taxminan 64-65 yil atrofida bo'lmoqda.

Afrikada uzoq yillardan beri davom etayotgan iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatlar natijasida turli demografik muammolar vujudga kelgan: aholi sonining tez o'sishi, bu esa oziq-ovqat, ish o'rinlari va uy-joy yetishmovchiligini kuchaytiradi. Ishsizlikning yuqori darajasi, qurg'oqchilik, iqlim o'zgarishi va urushlar natijasida oziq-ovqat muammosi yanada og'irlashmoqda. Ayrim davlatlarda turli xil yuqumli kasalliklar keng tarqalgan bo'lib, dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlarga ega onalar va bolalar o'limi kuzatiladi. Shaharlarga tomon tez migratsiya oqimi oqibatida ko'plab odamlar sharoitsiz uy-joylarda yashashga majbur bo'lmoqda. Ta'limdagi qiyinchiliklar sabab ko'plab mamlakatlarda bolalarning katta qismi maktabni tugatmaydi. Ayniqsa, qizlar o'rtasida ta'lim darajasi past. Afrika aholisi tarkibida yoshlar ulushi kata bo'lib, prognozlariga ko'ra, 2035-yilda qit'a shaharlari aholisi taxminan 1 mlrd kishiga yetishi kutilmoqda. Bu holat shahar infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish tizimi va yashash sharoitlariga katta bosim hosil bo'lishiga olib keladi.

Afrikada aholi tez ko'payayotgan davlatlarga Niger, Chad, KongoDR, Somali, Mali davlatlari kiradi. Bu davlatlarda tug'ilish darajasi yuqori bo'lib, ayollar o'rtacha 6 dan ortiq farzand ko'radi. Aholida tug'ilish sur'atining yuqori bo'lish sabablariga ta'lim darajasining pastligi (ayniqsa qizlar o'rtasida), sog'liqni saqlash tizimining yaxshi rivojlanmaganligi, tug'ilish nazoratining deyarli yo'qligi, aholining katta qismi qishloqlarda yashashi va qishloq xo'jaligi uchun ko'p farzand ishchi kuchi sifatida qaralishi, erta turmush, katta oilalar qadrlanib, ko'p bolali bo'lish boylik va baraka deb hisoblanishi, oilani rejalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi kabilarni kiritish mumkin.

1-jadval. Afrikadagi aholi soni eng ko'p davlatlar (20.09.2025.)

№	Davlatlar	Aholi soni (kishi his.)	Zichligi 1 kv.km	Yillik o'sish	
				kishi	%
1	Nigeriya	236 675 257	261	4 848 304	2.08
2	Efiopiya	130 978 115	135	3 412 284	2.58
3	Misr	114 692 252	119	1 827 737	1.27
4	KongoDR	105 391 955	50	3 556 208	3.25
5	Tanzaniya	70 332 284	80	1 985 708	2.9
6	Janubiy Afrika Respublikasi	62 674 476	53	740 132	1.16

7	Keniya	61 761 095	101	1 099 549	1.95
8	Uganda	54 082 837	257	1 369 802	2.74
9	Sudan	48 967 673	29	1 213 184	2.4
10	Jazoir	48 444 091	20	621 004	1.33

Manba: <https://countrymeters.info/ru> va <https://www.worldometers.info/ru> ma'lumotlari

asosida mualliflar tomonidan ishlandi.

Afrikadagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar sifatida ba'zi davlatlarda sifatli tibbiy xizmat va ta'lim olish imkoniyati cheklanganligi, ayrim mintaqalarda siyosiy beqarorlik va mojarolar, ba'zi mamlakatlarda ish o'rinlarining etishmasligi va yuqori ishsizlik darajasi kuzatiladi. Afrika hozirda eng ko'p mojarolar bo'lgan qit'a bo'lib qolmoqda, Ushbu nizolar ko'p qirrali bo'lib, jumladan, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy va etnik-diniy sabablardir. Afrika mamlakatlarida go'daklar o'limi ko'rsatkichlari dunyoning ko'plab mintaqalariga qaraganda juda yuqoridir. Bolalar o'limining eng ko'p uchraydigan sabablari to'yib ovqatlanmaslik, OIV infeksiyasi, bezgak, tug'ma anomaliyalar, quyi nafas yo'llarining infeksiyalari va diareya ekanligi manbaalarda keltirilgan. Ekstremal ob-havo sharoiti natijasida oziq-ovqat muammosi, aholi ko'chishi va ichimlik suvi tanqisligi kuchayib boradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish kamayib boradi.

Qit'ada o'ziga xos imkoniyatlar ham mavjud. Afrikada dunyodagi mineral zaxiralarning taxminan 30%, tabiiy gaz zahiralarining 8% va neft zaxiralariining 12% mavjud. Bu qit'ada dunyodagi oltinning 40%, xrom va platinaning 90% gacha qismi to'g'ri keladi. Kobalt, olmos, platina va uranning dunyodagi eng katta zaxiralari Afrikada joylashgan. Mazkur tabiiy resurslardan iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun foydalanishning samarali yo'llari va strategiyalarini ishlab chiqish eng muhim dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda demokratiya va qonun ustuvorligini kuchaytirish muhim zaruriyatlardan sanaladi.

Afrika davlatlarida mavjud geodemografik muammolar zaruriy yechimlarni talab qiladi. Jumladan, sifatli ta'lim imkoniyatlarini rivojlantirish, savodxonlik darajasini oshirish orqali mehnat bozoriga malakali kadrlarni jalb qilish, sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, ya'ni, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish

(zamonaviy texnika, urug' va sug'orish tizimlari), mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish, ish o'rinlari yaratish va yoshlarni ish bilan ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish - elektr energiyasi, toza ichimlik suvi va transport tizimini yaxshilash, shahar va qishloqlarni bog'lovchi yo'llarni qurish va ta'mirlash, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik, xalqaro tashkilotlar bilan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish kabilar muhim chora-tadbirlar sifatida qaraladi.

Afrika shaharlarining o'sishi iqtisodiy o'sishga turtki bo'lishi mumkin: yangi bozor, iste'molchi kuchi, infratuzilma loyihalari, sanoat va savdo markazlarining paydo bo'lishi, sog'liq xizmatlarining yaxshilanishiga olib keladi.

Afrika kuchli demografik o'sish, aholi tarkibida yoshlarning ko'pligi va shaharlarga ko'chish sur'ati bilan ajralib turadi. Bu holat iqtisodiy rivojlanish uchun katta imkoniyat bo'lishi mumkin, lekin infratuzilma, oziq-ovqat ta'minoti, sog'liq va yashash sharoitlari kabi sohalaridagi ko'plab muammolarni yechishni talab qiladi. Bunda jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlardan ushbu masalalarga alohida e'tibor talab qilinadi. Qit'ada mavjud imkoniyatlar va kuzatilayotgan muammolar yechimiga doir takliflar amalga oshirilsa, Afrika davlatlari aholisi keyingi yillarda sog'lom, baxtli va farovon hayot kechiruvchi davlatlar aholisi qatoriga kirishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:

1. Бердикулова М. Т. ЕР ШАРИ АҲОЛИСИНИНГ ГЕОДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТИ //Экономика и социум. – 2022. – №. 10-1 (101). – С. 286-289.
2. Berdiqulova M. T. AHOLINI RO'YXATGA OLISHDA GEOGRAFIK VA DEMOGRAFIK MA'LUMOTLARNING O'RNI //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-1 (94). – С. 29-32.
3. Berdiqulova M. T., Botirov Y. Z. MAMLAKAT POYTAHT SHAHARLARI O'ZGARISHINING GEOGRAFIK JIHATLARI //Экономика и социум. – 2025. – №. 4-1 (131). – С. 146-150.
4. Бердикулова М. Т. ГЕНДЕР ГЕОГРАФИЯСИНИНГ ИЖТИМОЙ ЖИҲАТЛАРИ //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-2 (120). – С. 911-914.
5. Berdiqulova M. T. O'ZBEKISTONNING HOZIRGI GEODEMOGRAFIK VAZIYATI //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 57-61.